

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI BAHOLASH JARAYONI

**Irodaxon Xoldarova Valijonovna**

FarDU dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Sotvoldiyeva Muxlisaxon Nodirbek qizi**

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

[valijonovamuhlisa@gmail.com](mailto:valijonovamuhlisa@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarni baholash jarayoni xususida fikr yuritiladi, ya‘ni dars davomida o‘quvchilarni bilimlarini baholash tartibi qisqacha ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** formativ baholash, summativ baholash, og‘zaki nutq, yozma nutq, lingvistik ko‘nikma, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, izoh-mulohaza.

Bugungi kunda Respublikamizning xalq ta‘limi oldida turgan asosiy vazifasi har tomonlama kamol topgan sog‘lom, qobiliyatli, o‘z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug‘ maqsadni ro‘yobga chiqarish xalq ta‘limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va o‘qituvchilar ommasidan o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o‘ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta‘lim olayotgan o‘quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo‘lgan ma‘lum darajada bilimli kishilardir.

Bugungi kunda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarida baholashga yangicha yondashuv olib kirildi, ya‘ni baholashning birinchi navbatda maqsadi o‘zgartirildi. Barchamizga ma‘lumki, bizning jamiyatimizda baholash jazolash yoki rag‘batlantirish vositasi quroli sifatida foydalaniladi. Lekin endi ta‘limda baholash deyilganda jazolash yoki rag‘batlantirish quroli emas, undan asosan, xulosa chiqarish vositasi sifatida foydalanish nazarda tutiladi.

#### **Baholashning maqsadi:**

**Jazolash yoki rag‘batlantirish quroli bo‘libgina qolmay, xulosa olish vositasi ham bo‘la oladi.**

Hozirgi ta‘lim jarayonida Akmalga savol berasiz, u javob beradi. Salimaga ham savol berasiz, u javob beradi. Ikkalasidan qaysi biri yaxshiroq javob bersa, shunga yaxshiroq baho qo‘yasiz, ya‘ni bunda biz ikkalasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni

baholab qo‘ygan bo‘lamiz. Lekin hozirgi baholashning maqsadi biroz boshqacha bo‘ladi. Unda ham shunday, Akmal ham javob beradi, Salima ham javob beradi, lekin ularga aniq baho qo‘yilmaydi. Aksincha, ularning xatolari, kamchiliklari, yutuqlari og‘zaki tarzda, yozma tarzda ifodalanib, ularni rivojlantirib borishga qaratiladi.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarida nimalar baholanadi? Birinchi navbatda 4 ta nutqiy kompetensiya, nutqiy malakalar va lingvistik ko‘nikma baholanadi.

### **Nimalar baholanadi?**

- 1) og‘zaki nutq;**
- 2) o‘qib tushunish;**
- 3) tinglab tushunish;**
- 4) yozma nutq;**
- 5) lingvistik ko‘nikma.**


E‘tibor qilasiz, lingvistik ko‘nikma deyilyapti, lingvistik bilim va lingvistik ko‘nikma ikki xil tushuncha hisoblanadi. Lingvistik bilim, masalan, -ning qo‘shimchasining qaratqich kelishigi ekanligini bilishim, bu lingvistik bilim hisoblanadi, lekin uni to‘g‘ri qo‘llashim lingvistik ko‘nikma bo‘ladi. Endi ona tili darslarida bolani qoidani bilishi emas, aynan o‘sha qoidada berilgan ma‘lumotdan o‘rinli foydalanishi baholanadi, kuzatiladi. Bundan buyon “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarida o‘qituvchi baholash qismida quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

### **O‘qituvchi:**

- 1. Formativ baholashni amalga oshiradi.**
- 2. O‘quvchilarning bahosini har doim ham e‘lon qilmaydi.**
- 3. O‘quvchilarning javobidan kerakli xulosalar chiqaradi.**
- 4. O‘quvchilarni summativ baholashga tayyorlab boradi.**
- 5. Izoh-mulohazalarni berib boradi.**

Formativ baholash bu kundalik o‘quvchini baholab borish deyiladi. Bu yerda baholash deyilganda 2, 3, 4, 5 kabi baholarni qo‘yish nazarda tutilmayapti. Yuqorida aytganimizdek, bolaning yutuq va kamchiliklarini aytish nazarda tutilyapti. O‘qituvchi o‘zi uchun o‘quvchiga baho qo‘yadi, lekin uni ommaviy tarzda e‘lon qilmaydi. O‘quvchilarning javobidan kerakli xulosalarni chiqaradi, ya‘ni yuqorida aytgan misolimizdek, Akmal va Salima javob berganda, Akmalning nimalarda xato qilayotganini, qaysi jarayonda tushunishga qiynalayotganini o‘zi uchun xulosa chiqaradi va keyingi darslarda mana shunday kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi. O‘quvchilarni summativ baholash. Bundan buyon yil yakunida yoki chorak yakunida o‘tkaziladigan yakuniy baholash jarayonlari ta‘lim markazlari yoki baholash tizimlari tomonidan amalga oshiriladi. Shunday ekan, endi o‘qituvchining

vazifasi o'quvchilarni ana shunday imtihonlarga tayyorlab borish hisoblanadi. Izoh-mulohazalarni berib boradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir o'quvchiga bergan javobiga nisbatan fikr-mulohaza, izoh bildirib o'tadi. Keling endi izoh-mulohaza nima ekanligini gaplashamiz. Izoh-mulohaza bu o'quvchiga qo'ygan bahoyingizga yoki o'quvchi bergan javobga nisbatan sizning fikringiz hisoblanadi.



Keling endi, samarali izoh-mulohazaga bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz:

<b>Samarali fikr-mulohaza</b>	<b>Nimasi bilan samarali?</b>
Bosh harflarning qo'llanishi bilan bog'liq 4 ta xató bor. Kitobning 28-betini oching va bosh harflar imlosiga oid qoidalarni takrorlab oling.	Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o'z ichiga olgan.
Sizning nutqingiz juda tez edi, shuning uchun har bir so'zni sekin va ravon talaffuz qilib, har bir jumla orasida pauza qiling.	Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo'lmagan) ifodalangan.
Maftuna, siz tuzgan matningizda so'z yasovchi qo'shimchalardan juda yaxshi foydalangansiz, qo'shimchalarga ham e'tiborli bo'ling.	O'quvchilarning rivojlanishiga qaratilgan.
Zahro, muammoga yondashuvingiz to'g'ri, bu muammoni hal qilishda 3 ta tog'ri qadamni amalga oshirgansiz.	O'quvchining xatti-harakatlari kutilgan natija bilan qiyoslab berilgan

## Endi, samarasiz fikr-mulohazalar qanday bo‘ladi?

Samarasiz fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarasiz?
Sinfdagi boshqa o‘quvchilarga nisbatan yaxshi bajargansiz.	O‘ta umumiy. O‘quvchi aynan nimasiga ko‘ra yaxshi bajarganini, aynan qaysi sahifalar yaxshi deya baholanayotganini, keying harakatlari qanday bo‘lishi kerakligini anglolmaydi.
Qoniqarsiz yoki yaxshi bajarilmagan.	Noaniq. O‘quvchi xatolari nimada ekanini, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilishi kerakligini anglolmaydi.
Juda yaxshi javob berdingiz, qoyil!	Noaniq. O‘quvchi qaysi harakati to‘g‘riligi va uni davom ettirish o‘rinli ekanini aniq bilmaydi.
Siz juda yaxshi o‘quvchisiz, sizdan nihoyatda mamnunman.	O‘ta umumiy. O‘quvchining qaysi xatti-harakatiga bunday xulosa berilayotgani aniq aytilmagan.
Siz juda yaxshi gapirdingiz.	O‘ta umumiy. O‘quvchining javobi qanday xususiyatlarga ega ekanligi aytib o‘tilmagan.

### Endi, formativ baholash qanday o‘tkaziladi?


#### 1. Darslikdagi topshiriqlar asosida.

#### 2. Darslikdan tashqari tuzilgan topshiriqlar asosida.

Farmativ baholashdagi savollarni maqsadi ikki turli bo‘ladi:

- o‘quvchini fikrlashga undaydigan, xulosa chiqarishga o‘rgatadigan;
- aniq lingvistik yoki nutqiy ko‘nikmani shakllantirishga qaratilgan.

Namuna:



Bu 1.1-rasmda o'quvchilardan "Nima yaxshi?" deb so'ralyapti va tagida shu mavzuga aloqador savollar berilyapti. Ko'rib turganimizdek, berilgan to'rttala savol ham o'quvchilarni fikrlashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi.

**2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-qism.**

Demak, bugungi kunda o'quvchilar baholanadi, lekin hammasi ham emas. O'quvchilarga topshiriqlar beriladi, ularning javoblari olinadi va o'sha javoblardan xulosalar chiqarishga harakat qilinadi. Xulosalar qanday bo'lishi mumkin? Aytaylik, Anvar she'rdagi biror o'xshatishni tushunmadi. Aynan mana shu o'xshatishni tushunmasligiga nima sabab bo'ldi? Mana shu narsa qidiriladi va o'sha kamchilik keyinchalik to'ldirib boriladi. Chunki, Milliy o'quv dasturida har bir sinf bitiruvchisiga ma'lum bir malaka talablari qo'yib chiqilganki, sinfni bitirayotgan o'quvchi ana shu malaka talablarini bajarishi kerak va yakuniy imtihonlari ham aynan ana shu malaka talablari asosida olib boriladi. Xulosa qilish mumkinki, siz o'quvchini baholaysiz, lekin baholashingiz bu faqat o'zingizga xulosa chiqarish uchun kerak bo'ladi. Shunday qilib, dars jarayonida o'quvchilarni asosiy 4 ta kompetensiyalar va lingvistik ko'nikma asosida baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. –B.20-29.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. – B.32-61.
3. Abdullayeva Q., Yusupov M. Diktantlar to'plami. – T.: "O'qituvchi", 1992.

12. Abduqudusov O. A. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil.
4. Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 2003.
5. Azimov Y. Y., Qo‘ldoshev R. A. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari (metodik qo‘llanma). Buxoro, 2020. - 130 b.
- Hamroyev A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. 216 b.
6. Hamroyev M. Ona tilidan ma’ruzalar majmuasi. – T.; 2007.
7. Ikromova R, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Shodmonqulova D. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. “O‘qituvchi”, T-2020.
8. Mavlonova K, Quronov S, Tursun Shokir, Hakimova N, Baxtiyorova H. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 160 b.
9. [www. tdpu. Uz](http://www.tdpu.uz)
10. [www. pedagog. Uz](http://www.pedagog.uz)
11. [www. ziyonet. Uz](http://www.ziyonet.uz)